

PUDRAT SHARTNOMASI (KONTRAKT)

№ 20- sonli

Yangibozor tumani

«03» noyabr 2022 yil

Keyingi o'rindarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Yangibozor tuman tibbiyat birlashmasi Nizom asosida ish ko'rvuchi raxbar M.Vaisova bir tomondan, keyingi o'rindarda «Pudratchi» deb yuritiladigan «URGANCH CHOLISH KONSALTING MARKAZI» xususiy korxonasi nomidan Nizom asosida ish ko'rvuchi J.To'raev ikkinchi tomondan Yangibozor tumanining 8 ta maxallasida "Maxalla tibbiyat punktlari" ni joriy tamirlash bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quydagi ta'riflar qo'llaniladi;

-**ijro xujjatlari** – naturada bajarilgan ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi tug'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlarni tasdiqlanganligi tug'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-dalolatnomalar, ishlarni bajarishda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarishda qabul qilinishi normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar;

-**qurilish maydoni** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnomalar bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib ko'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

-**vaqtinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdag'i vaqtinchalik binolar va inshootlar;

-**berkitiladigan ishlarni** – sifati va aniqligini keyingi ishlarni bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'limgan keyinchalik bajariladigan ishlarni va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlarni;

-**shartnoma narxini bo'lib chikish** – ishlarning xar bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan loyixa bo'yicha Xorazm viloyati Yangibozor tumanining 8 ta maxallasida "Maxalla tibbiyat punktlari" ni joriy tamirlash ishlarni bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga Xorazm viloyati Yangibozor tumanining 8 ta maxallasida "Maxalla tibbiyat punktlari" ni joriy tamirlash ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovnini amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlarni bajarishda qabul qilish, yig'imlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan xolda Xorazm viloyati Yangibozor tumanining 8 ta maxallasida "Maxalla tibbiyat punktlari" ni joriy tamirlash narxlarda jami 617 000 000,0 (Olti yuz o'n yetti million) so'm

4. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

- qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;

- ishlarni bajarishda qabul qilish, yoki jaib qilingan kuchlarni bajarishda qabul qilish, yoki jaib qilingan kuchlarni bajarishda qabul qilish;

- ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda;

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

-barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2- ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jaib qilingan kuchlarni bajarishda qabul qilish, yoki jaib qilingan kuchlarni bajarishda qabul qilish bo'yicha Xorazm viloyati Yangibozor tumanining 8 ta maxallasida "Maxalla tibbiyat punktlari" ni joriy tamirlash narxlarda jami 617 000 000,0 (Olti yuz o'n yetti million) so'm

- qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;

- qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

- Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor kilish;

- qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

- qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta kilish;

- mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalananishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomalar imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

- qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

- qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'g'risida shartnoma tuzadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.

-mazkur shartnoma nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni tuliq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlagan 20% aylanma mablag'larini mazkur shartnoma ko'zda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun unumli ishlashish majburiyatini oladi.

9. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlari bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitelnaya dokumentasiya) to'liq xajmda taqdim qiladi.

10. Pudratchi mazkur shartnomaga bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTmachining MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrga dalolatnomaga bo'yicha Pudratchiga berish;

- ishlari bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada kayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul kilingan majburiyatlar va boshka funksiyalarga rioya etilishini nazorat kilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chikish va qaror qabul qilish;

- moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va moliyalashtirishni amalga oshirish;

- Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;

12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. Shartnomalar uni imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova kilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi.

15. Ob'ektni 30 kalendar kunida foydalanishga topshirilishi belgilanadi .

VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. Shartnomalar bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnomalar bo'yicha ishlari **Xorazm viloyati Yangibozor tumanining 8 ta maxallasida "Maxalla tibbiyot punktlari"** ni joriy tamirlash ishlariiga 30 % miqdorida avans o'tkazadi, bu **185 100 000,00 (Bir yuz sakson byesh million bir yuz ming)** so'mni tashkil etadi.

18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish Urganch tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli №14-sonli maktab atrof devorini joriy ta'mirlash (to'siq devor) uchun budjetdan maqsadli berilgan mablag'lar 3 banka kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-ilovalar)

19. Buyurtmachi tomonidan joriy ta'mirlashni moliyalashtirish bajarilgan ishlari xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin xaqiqiy bajarilgan ishlari qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.

20. Pudratchining xisob raqamiga tushadigan mablag'lar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xaq to'lash, ob'ekt qurilishida ishtiroy etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va Ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlariga qatt'iy sarflanadi.

21. Pudratchi joriy ta'mirlashni moliyalashtirish uchun xisobot oyning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'g'risidagi «Bajarilgan ishlari qiymati to'g'risidagi ma'lumotnomalar xisob-varaq-fakturani» o'zi tuzib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlaring miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.

22. Buyurtmachiga joriy ta'mirlashni moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlaring miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlari qiymati to'g'risidagi ma'lumotnomalar-xisob-varak-faktura» asos buladi.

23. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga kadar mazkur shartnomalar bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini uzida saklaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirgunga kadar ob'ektning tasodifiyo yo'q kilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida buladi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini yoki texnik auditorini tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlari sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalananiladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnomalar shartlariga va ishlari xujjatlariga muvofikligini tekshiradi.

25. Berkitilgan vakil yoki texnik auditor ishlari bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan tusiqsiz tanishish xuquqiga egadir.

26. Pudratchi berkitilgan vakil yoki texnik auditori ishlashtirish uchun joy bilan ta'minlaydi. Berkitilgan vakil texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

27. Pudratchi ishlarni bajarish loyhasiga va mazkur shartnomaning VI-bulimida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiklashtirilgan o'z rejasi va ishlari jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir kilmaydigan ishlari xujjatlaridan mayda chetga chikishlarni Buyurtmachining roziligidan amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilar tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmsadan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining uzaro munosabatlarida axamiyatga ega bulgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bulishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar kursatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, utkazilgan sinovlar, materiallar uz vaktida yetkazib berilmasligi bilan boglik tuxtab kolishlar, qurilish texnikasining ishdan chikishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir kilishi mumkin bulgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining kaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon kiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. YENGIB BULMAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) XOLATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar kisman yoki tulik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshka yengib bulmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiksa va agar bu xolatlari mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday kisman yoki tulik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bulmaydigan kuch xolatlari amal kilgan, shuningdek ushbu xolatlар yuzaga keltirgan vaktga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bulmaydigan kuch xolatlari yoki ularning okibatlari bir oydan kup vaktga chuzilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservasiya kilish uchun kanday choralar qurilishini muxokama kiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor kilinishini talab kilishga xaklidir.

X. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:

- barcha ishlarni tulik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
- loyixa xujjalari xamda qurilish me'yorlari, koidalari va texnik shartlariga muvofik barcha ishlarni bajarish sifatini;
- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjalari ko'rsatilgan sertifikasiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofikligini;
- ishlarni qabul kilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;
- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi. Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi. Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

XI. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

35. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin Urganch tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli №14-sonli maktab atrof devorini joriy ta'mirlash (to'siq devor) boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
 - ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortik muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
 - Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;
- qonun xujjalari muvofiq boshka asoslar bo'yicha shartnomaning bekor kilinishini talab qilish xuquqiga ega.

36. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortik muddatga to'xtatib ko'yilganda;
 - Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;
 - konun xujjalari muvofiq boshka asoslar bo'yicha shartnomaning bekor kilinishini talab qilish xuquqiga ega.
37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.
38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim koidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.
39. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.
40. Shartnomaning bir tomonlama bekor kilinishiga yo'l qo'yilmaydi, konun xujjalari yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

XII . TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda aybdor tomon: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida» gi qonunida va boshqa qonun xujjalari xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi.

42. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida kuyidagi xollarda javobgar bo'ladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnomasi bo'yicha buning oqibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;
- buyurtmachining xisob raqamiga maqsadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablag'larini uch banka kunida sababsiz pudratchining xisob raqamiga o'tkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;
- shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvali bo'yicha bajarilgan ishlar xajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiklashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul kilish, tasdiklashdan bosh tortgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;
- shartnoma shartlariga muvofik tayyor xolda qabul kilish uchun takdim kilingan ob'ektni asossiz ravishda qabul kilishdan bosh tortsa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

43. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi xollarda mulkiy javobgar bo'ladi va:

- Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmda ishlarni bajarsa , majburiyatlarning bajarilmagan kismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% miqdorda penya to'laydi.
- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga qadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlarni qiyomatining 5% miqdorida jarima to'laydi;
- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdordan kam bajarsa, bajarilmagan kismining 5% miqdorida jarima to'laydi;
- ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma qiyomatining 5% miqdorida jarima to'laydi;
- Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (o'n kundan ortiq bo'lman) muddatda bartaraf qilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni qiyomatining 5% miqdorida jarima to'laydi.

44. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon raqamlarini, korxona atamasi yoki maqomini noto'g'ri bersa va o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumotni uch kalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tamon ikkinchi tamonga shartnoma baxosining 0,1% miqdorida jarima to'laydi.

45. Bir tamonning aybi bilan shartnomani bekor kilishga tug'ri kelsa, aybdor tamon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda.

46. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib to'laydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma qiyomatining 30% dan oshmasligi kerak.

47. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnomaga asosida to'lov talabnomasi bo'yicha akseptsiz amalga oshirishga xaqlidir.

XIII. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarini tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular qonun xujjalarda belgilangan tartibda sudga murojat kilishlari mumkin.

XIV. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

49. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi. Buyurtmachi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Pudratchining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Pudratchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

XV. ALOXIDA SHARTLAR

50. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zarो kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

51. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish xujjalardan tashkari, biron-bir uchinchi tamonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.

52. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.

53. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar qanday axdashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

54. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlarni yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlarni uchun unga xak to'lashni kechiktirishga xaqlidir.

55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjalari qo'llaniladi.

56. Mazkur shartnoma tomonlar imzolanib Budjet kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga kiradi va ushbu shartnoma 31.12.2022 yil gacha amal qildi.

57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

PUDRATCHI:

BUYURTMAKI:

«Urganch Cholish konsalting markazi» x/k	Yangibozor tuman tibbiyot birlashmasi
Manzil: Urganch tuman «Cholish» shaharchasi	Manzil: Yangibozor sh.Navboxor ko'cha 61 uy
Telefon: 93 922 88 45	Telefon: 624194095
x/r: 2020800004492641001	x/r: 401722860332367073101054002
INN: 206376599	INN: 201018832
Bank: ATB Agrobank Urganch filiali	Moliya vazirligi gaznachiligi
MFO: 00569	x/r: 23402000300100001010
OKONX: 61110	Bank: Markaziy bank Tosh.sh.
	MFO: 00014 INN: 201122919

Rahbar
MO'

J.To'raev



MO'

Rahbar

M.Vaisova



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

VF7306251318

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Xo‘jalik munosabatlari «URGANCH CHOLISH KONSALTING MARKAZI» xususiy korxonasi o‘rtasida 20-sonli shartnoma shartnomaning umumiyligi summasi jami 617 000 000,0 (Olti yuz o‘n yetti million) so‘m
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Yangibozor tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 03.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Yangibozor tuman
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:



D.M.OTABAYEV

04.11.2022

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 169861 на приобретение Хоразм вилояти Янгибозор туманининг 8 та маҳалласида "Махалла тиббиёт пунктлари" ни жорий таъмирлаш.

Способ проведения электронный

Дата 02.11.2022

Время рассмотрения 01.11.2022 20:26

Закупочная комиссия Янгибозор туман тиббиёт бирлашмаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	VAISOVA MEXRIBON EGAMBERGANOVNA	Рахбар	Харид комиссия
Секретарь комиссии	TAJIMOV BEKTOSH MURATOVICH	мутахассис	харид комиссия
Член комиссии	URAZMETOV KAXRAMON G'AYIBNAZAROVICH	Завхоз	харид комиссия
Член комиссии	ISAYEV JASURBEK JUMAMURADOVICH	Рахбар уринбосари	харид комиссия
Член комиссии	ABDULLAYEVA MATLUBA BAZARBAYEVNA	Бухгалтер	харид комиссия
Член комиссии	MASHARIPOV RUSTAM DAVLATBOYEVICH	завклад	харид комиссия

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объятиению на специальном информационном портале от 02.11.2022 года № лота 169861.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 30

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту зданий
Подробное описание	Хоразм вилояти Янгибозор туманининг 8 та маҳалласида "Махалла тиббиёт пунктлари" ни жорий таъмирлаш.
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	617 122 455.00
Стартовая сумма	617 122 455.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танловдаги объектларга ўхшаш объектларда буюртмачи ташкилотлар билан тузилган шартномалар рўйхати жадвал кўринишда тагдим қилинади ва камидан битта буюртмачи ташкилотлардан тавсиянома.

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловдаги объектларга ўхшаш объектларда буюртмачи ташкилотлар билан тузилган шартномалар рўйхати жадвал кўринишда тагдим қилинади ва камидан битта буюртмачи ташкилотлардан тавсиянома.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УРГАНЧ ЧОЛИШ КОНСАЛТИНГ МАРКАЗ	5	5	4	Экспертная		
NAZAR GRANT ЧП	5	5	4	Экспертная		

Критерий №2 Оферант тўғрисида умумий маълумот, коррупция кўринишларига йўл қўймаслик бўйича ариза

Тип: Текстовое значение

Описание: Рейтинг кўрсаткичи. Кархона устави, гувохномаси, ҚҚС гувохномаси(фаол бўлиши керак), бугунги санага асосий фаолият тури, my.gov.uz сайтидан QR код билан тасдиқланган устав жамғармаси ва таъсисчилари ҳамда кархона тўғрисида умумий маълумот.(стир, хизмат кўрсатувчи банк, х/р, раҳбар ва бошқалар) коррупция кўринишларига йўл қўймаслик бўйича ариза

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УРГАНЧ ЧОЛИШ КОНСАЛТИНГ МАРКАЗ	10	10	8	Экспертная		
NAZAR GRANT ЧП	10	10	10	Экспертная		

Критерий №3 Молиявий кўрсаткичлар тўғрисида маълумот. 2021 йил учун йиллик баланс ва молиявий натижалар ва фойда солиғи ҳисоботлари. Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича қарздорликнинг мавжуд эмаслиги . Банкдан картатека 2 дан қарздорлиги бўлмаслиги керак. МИБ ижро ҳужжатлари бўйича қарздорлиги мавжуд эмаслиги.

Тип: Текстовое значение

Описание: Объектнинг буюртмачи белгиланган бошланғич нархнинг 20% гача миқдордаги айланма маблағлар мавжудлиги хизмат килувчи банк томонидан тасдиқланган ҳамда шу санага объектнинг бошланғич нархнинг камидаги 20 % маблағи ҳисоб рақамда мавжудлиги тўғрисидаги маълумотнома Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича қарздорликнинг мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумотнома. Хизмат кўрсатувчи банкдан (танлов эълон қилинган кундан кейин олиниши шарт QR коди билан ёки имзоланган ва муҳирланган кўринишда)ҳамда МИБ дан маълумотнома

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УРГАНЧ ЧОЛИШ КОНСАЛТИНГ МАРКАЗ	10	10	10	Экспертная		
NAZAR GRANT ЧП	10	10	8	Экспертная		

Критерий №4 Танлов обьекитиди ишлатиладиган қурилиш материалларининг мавжудлиги сақланаётган омборхонаси ҳамда сертификатлари тўғрисида маълумотлар.

Тип: Текстовое значение

Описание: Оферантнинг ушбу қурилиш обьектда ишлатиладиган қурилиш материаллари мавжудлиги, жорий ой ҳолатига счёт фактура ва бошқа ҳужжатлари, омборхонасида мавжуд қурилиш материаллари шу обьектда ишлатиладиган. Ишлаб чиқариш базаси ҳамда қурилиш материаллари ишлаб чиқарувчи эканлигини тасдиқловчи маълумотлар мавжудлиги, омборхонаси мавжудлиги ҳамда ушбу обьектда ишлатиладиган қурилиш материаллари сертификатлари.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УРГАНЧ ЧОЛИШ КОНСАЛТИНГ МАРКАЗ	12	12	10	Экспертная		
NAZAR GRANT ЧП	12	12	10	Экспертная		

Критерий №5 Ишчи ва ходимлари малакаси мутахасислиги ва иш тажрибаси. Ташкилот раҳбарининг мутахассислик бўйича маълумоти . Шу обьектида ишловчи ишчиларни Баҳтсиз ходисалар бўлган вазиятларда ишчи ходимларнинг хаёти суғурталанганилиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Қурилиш майдонида меҳнат муҳофасизи талаблари , техника хафсизлиги коидаларига тўлиқ риоя қилиниши бўйича талаблар ижроси ва йурикномалар ишчи ходимлар бўйруги, маълумоти , мутахасислиги қурилишдаги иш стажлари ту. mehnat.uz сайти билан мос келиши. Туман бандликга қўмаклашиш маркази маълумономаси асосида. Ташкилот раҳбарининг қурилиш соҳасидага иш стажи , маълумоти , олий маълумотли мутахасислигига қараб 1 дан 5 гача бал ҳисобланади. Раҳбар олий маълумотли қурулиш соҳасига доир маълумотга эга бўлган, стажи камида 5-йил ва ундан юқори бўлиши тавсия қилинади. Сугурта хужжатлари

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УРГАНЧ ЧОЛИШ КОНСАЛТИНГ МАРКАЗ	15	15	12	Экспертная		
NAZAR GRANT ЧП	15	15	12	Экспертная		

Критерий №6 Қурилишда фойдаланиладиган машина ва механизмлар руйхати

Тип: Текстовое значение

Описание: Кархонада мавжуд бўлган юқ автомобилларнинг ишлаб чиқарилган йили ва юқ кўтариш қуввати кўрсатилган маълумотномаси, ҳамда транспортларнинг техник паспорти ва техник кўриқдан ўтганилиги кўрсатилиши шарт. Ишлаб чиқарилган йилига қараб бал ҳисобланади.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УРГАНЧ ЧОЛИШ КОНСАЛТИНГ МАРКАЗ	8	8	8	Экспертная		
NAZAR GRANT ЧП	8	8	4	Экспертная		

Критерий №7 Олдинги йиллар давомида бажарилган ишларни кабул килиш топшириш далолотномаси ва бошқа хужжатлари. Шунингдек Очикбюджет лойҳалари доирасида бажарган ишлар ҳажими ва назорат ўлчовдан ўтказилганилиги.

Тип: Текстовое значение

Описание: Қабул комиссиясининг ёки буюртмачи ташкилотнинг далолатномалари . Давлат ўлчов назоратдан ўтганилига ҳақида далолатнома нусхалари. Шартнома ва счёт фактуралар ҳамда буюртмачи ташкилотларнинг тавсиялари билан биргаликда юкланди.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УРГАНЧ ЧОЛИШ КОНСАЛТИНГ МАРКАЗ	10	10	9	Экспертная		
NAZAR GRANT ЧП	10	10	8	Экспертная		

Критерий №8 Асосий воситаларнинг қолдиқ қиймати 100 млн. сўм ва ундан кўп. 4 балл. Ўтган йилда 50 млн.сўм фойдаси (солиқ тўлангунга қадар) мавжудлиги. 4 балл. Иш ҳақи фонди 80 млн. Сўм. 4 балл. Тўловга қодирлик ёки қоплаш коэффициенти 1,25 ва ундан кўп.4 балл.

Тип: Текстовое значение

Описание: Бухгалтерия баланси. Молиявий натижа ва бошка тегишли хужжатлар.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УРГАНЧ ЧОЛИШ КОНСАЛТИНГ МАРКАЗ	16	16	16	Экспертная		
NAZAR GRANT ЧП	16	16	8	Экспертная		

Критерий №9 Ушбу хизматларни қисқа муддатда бажариш хамда кафолат бўйича муддати.Курилиш майдонини кўрганлик тўғрисидаги маълумотнома.

Тип: Текстовое значение

Описание: .Ишларни бажариш ва кафолат муддати. Курилиш майдонини курганлик буюртмачи ва оферантнинг имзоси ва муҳри билан тасдиқланади.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
УРГАНЧ ЧОЛИШ КОНСАЛТИНГ МАРКАЗ	14	14	14	Экспертная		
NAZAR GRANT ЧП	14	14	4	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференций	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
УРГАНЧ ЧОЛИШ КОНСАЛТИНГ МАРКАЗ	617 122 455.00	617 000 000.00 UZS	617 000 000.00	00.00	617 000 000.00	31.10.2022 09:43:24	10
NAZAR GRANT ЧП	617 122 455.00	617 000 000.00 UZS	617 000 000.00	00.00	617 000 000.00	01.11.2022 00:37:20	10

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
УРГАНЧ ЧОЛИШ КОНСАЛТИНГ МАРКАЗ	81.9	10	91.9
NAZAR GRANT ЧП	61.2	10	71.2

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 169861 от 02.11.2022 года на приобретение Хоразм вилояти Янгибозор туманининг 8 та маҳалласида "Махалла тиббиёт пунктлари" ни жорий таъмирлаш. определила победителем:

УРГАНЧ ЧОЛИШ КОНСАЛТИНГ МАРКАЗ
206376599

и резервный исполнитель: NAZAR GRANT ЧП (305758033)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	VAISOVA MEXRIBON EGAMBERGANOVNA	Согласен	
Член комиссии	URAZMETOV KAXRAMON G'AYIBNAZAROVICH	Согласен	
Член комиссии	ISAYEV JASURBEK JUMAMURADOVICH	Согласен	
Член комиссии	ABDULLAYEVA MATLUBA BAZARBAYEVNA	Согласен	
Член комиссии	MASHARIPOV RUSTAM DAVLATBOYEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП